

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR  
INSTITUTI**

**VOXIDOV SARVARBEK TO‘LANBOY O‘G‘LI**

**FARG‘ONA VODIYSI SHAROITIDA POREY PIYOZINING (*Allium porrum*  
L.) AGROBIOLOGIYASI VA YETISHTIRISH AGROTEXNIKASINI AYRIM  
ELEMENTLARINI ISHLAB CHIQISH**

**06.01.06 – Sabzavotchilik**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2024**

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора  
философии (PhD) по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of  
philosophy (PhD) on agricultural sciences**

**Voxidov Sarvarbek To‘lanboy o‘g‘li**

Farg‘ona vodiysi sharoitida porey piyozining (*Allium porrum* L.)  
agrobiologiyasi va yetishtirish agrotexnikasini ayrim elementlarini ishlab  
chiqish ..... 3

**Вохидов Сарварбек Туланбой угли**

Агробиология и разработка некоторых элементов агротехника  
выращивания лука порея (*Allium porrum* L.) в условиях Ферганской  
долины ..... 19

**Vokhidov Sarvarbek Tolanboy**

Agrobiology and development of some elements of agricultural technology  
for growing leeks (*Allium porrum* L.) in the Ferganavalley..... 37

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Spisok o‘publikovannix rabot  
List of published works ..... 41

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR  
INSTITUTI**

**VOXIDOV SARVARBEK TO‘LANBOY O‘G‘LI**

**FARG‘ONA VODIYSI SHAROITIDA POREY PIYOZINING (*Allium porrum*  
L.) AGROBIOLOGIYASI VA YETISHTIRISH AGROTEXNIKASINI AYRIM  
ELEMENTLARINI ISHLAB CHIQISH**

**06.01.06 – Sabzavotchilik**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI  
(PhD)DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2024**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Qx1108-raqami bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdau.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Bo'stonov Zokirjon Tajibayevich  
qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy oponentlar:** Adilov Maxsud Mirvositovich  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Salomov Bahodir Salomovich  
qishloq xo'jaligi falsafa fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.05/29.04.2022.Qx.13.04 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 20 dekabr soat 16 <sup>00</sup>dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.:(+99871) 260-48-00; faks: (+99871) 260-38-60; e-mail: tuag-info@edu.uz; Toshkent davlat agrar universiteti Ma'muriy binosi, 1-qavat, anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 551948-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. Toshkent davlat agrar universiteti, Axborot resurs markazi binosi. Tel.: (+99871) 260-50-43).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 7 dekabr kuni tarqatildi.  
(2024-yil 18 noyabrdagi № 42 raqamli reyestr bayonnomasi).



*Sh.I. Asatov*  
Sh.I. Asatov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, q.x.f.d., professor

*M.Z. Xolmurotov*  
M.Z. Xolmurotov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, q.x.f.d.,  
dotsent

*S.A. Yunusov*  
S.A. Yunusov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
q.x.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda sabzavot ekinlari assortimenti kengaytirish zamonaviy sabzavotchilikning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Piyozli ekinlar orasida poyez piyozi (*Allium porrum* L.) alohida o‘rin tutib, dunyo bo‘yicha poyez piyozi 2 239,8 ming tonna mahsulot yetishtiriladi. “Poyez piyozi hosilini ishlab chiqarish bo‘yicha Indoneziya (638,7 ming t.), Turkiya (225,5 ming t.), Fransiya (168,4 ming t.), Janubiy Belgiya (147,1 ming t.), Koreya (148,1 ming t.), Xitoy (119,0 ming t.) davlatlari yetakchi hisoblanadi”<sup>1</sup>. Ushbu ekin turi asosan oziq-ovqat maqsadlarida yetishtirilib, tarkibida C, B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, E, vitaminlari, efir moyi va ko‘p miqdorda mineral moddalarga boydir. Poyez piyozi yengil hazm bo‘ladigan va past kaloriyalik ekin turi sifatida unga bo‘lgan talab ortib bormoqda.

Piyoz turlari Yevropa, Shimoliy va Janubiy Amerika, Avstraliya, Osiyo va Afrika mamlakatlarida keng tarqalgan bo‘lib, shu sababli, piyoz oilasi vakillarining sistematikasi, tarqalishi va biologiyasini o‘rganish masalalari uzoq vaqt davomida tadqiqotchilarning e‘tibori qaratildi. Bu borada, yuqori hosildor, kasallik va zararkunandalarga chidamli, sovuqqa o‘ta bardosh hamda uzoq saqlanuvchan bo‘lgan poyez piyozi istiqbolli sabzavot ekini hisoblanadi. Poyez piyozi dunyoning barcha qit‘alarida keng tarqalgan bo‘lib, ekin maydoni va mahsulot ishlab chiqarish doimo ortib bormoqda.

Poyez piyozi O‘zbekistonda, xususan, Farg‘ona vodiysi tuproq-iqlim sharoitida keng tarqalmagan bo‘lib, bunga sabab rayonlashtirilgan navlarning kamligi hamda yetishtirish texnologiyasini ilmiy asoslanmaganligidir. Shu sababli, respublikada poyez piyozi o‘simligini xorijiy seleksiya manbalarini o‘rganish, shuningdek, yetishtirish texnologiyasining ayrim elementlarini takomillashtirishni tadqiq qilishni taqozo qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘shishini kamida 5 foizga yetkazishda, ayniqsa, 2026 yilga borib oziq-ovqat mahsulotlari hajmini 7,4 mln. tonnaga, qayta ishlash darajasini meva-sabzavot bo‘yicha 28 foizga yetkazish”<sup>2</sup> muhim vazifa sifatida belgilab berilgan. Bu borada, O‘zbekistonda piyozdoshlar oilasi assortimentini kengaytirish, shuningdek, poyez piyozning yuqori mahsuldor navlarni tanlash va yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish dolzarb ilmiy yo‘nalish hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevralgi PF-36-son “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni<sup>3</sup>; 2023-yil 05-apreldagi PQ-113-son “2023 yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>4</sup>gi qarori, shuningdek, bu sohada qabul qilingan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

<sup>1</sup> FAOSTAT Statistics Database. FAO, Rome, Italy. <http://www.fao.org>.

<sup>2</sup> <https://lex.uz/uz/pdfs/5841077>

<sup>3</sup> <https://www.lex.uz/pdfs/6802687>

<sup>4</sup> <https://www.lex.uz/pdfs/6424449>

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlarga bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Dunyoning ko‘pchilik davlatlarida qishloq xo‘jaligi, xususan, porey piyozni biologiyasi, yetishtirish texnologiyasini tadqiq qilish borasida, keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlarni I.I.Zbrueva, O.V.Sinkevich, Y.I.Soldatov, I.V.Medvedev, A.F. Agafonov, L.S.Borisenkova, T.I.Kirnosova, V.A.Kokoreva, V.A.Kuznetsov, V.F.Lubnin, A.N.Paponov (Rossiya), R.Baker, R.Burns (Angliya), F.Benoit, N.Centermans (Belgiya), D.Gray, J.A.Ward (AQSH), M. Hesam Shahrajabian, Wenli Sun (Xitoy) kabi olimlar olib borgan.

Biroq, O‘zbekiston tuproq-iqlim sharoitida porey piyozni yetishtirishning ayrim elementlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmagan. Shu munosabat bilan ushbu dissertatsiya mavzusi doirasida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish dolzarb hisoblandi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti Intensiv sabzavotchilik, bog‘dorchilik, uzumchilik va issiqxona xo‘jaligi kafedrasining № 3.1-raqamli “Andijon viloyati sharoitida meva, sabzavot, uzum, poliz ekinlarini yetishtirish va birlamchi urug‘chilikni tashkil etish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan (2020-2025 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi.** Farg‘ona vodiysi tuproq-iqlim sharoitiga mos porey piyozi navlarini tanlash hamda yetishtirishning ayrim elementlarini ishlab chiqish hisoblanadi.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

Farg‘ona vodiysi tuproq-iqlim sharoitida porey piyozni ko‘chat usulida yetishtirishda istiqboli navlarni tanlash;

porey piyozi hosildorligiga turli ekish muddatlarni ta‘sirini aniqlash;

porey piyozi ko‘chatlarni eng qulay ekish sxemasi va o‘simlik oziqlanish maydonini aniqlash;

porey piyozi navlari hamda maqbul ekish muddati va sxemalarida yetishtirilganda hosildorligining iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqotning obykti** sifatida porey piyozi o‘simligini xorijiy seleksiyasiga mansub 13 ta nav va na‘munalar “Karantanskiy” (st), “Vesta”, “Jiraf”, “Zimniy gigant”, “Kazimir”, “Kamus”, “Kolambus”, “Letniy briz”, “Osenniyy gigant”, “Pobeditel”, “Premyer”, “Elefant MS” navlari hamda “Lincoln F1” duragayi o‘simligi xizmat qilgan.

**Tadqiqotning predmeti** bo‘lib porey piyozini nav na‘munalarini baxolash, istiqbolli nav na‘munalarini ajratish, maqbul ekish sxemasini aniqlash, 4 ta ekish muddatlari (10 fevral, 20 fevral (nazorat), 1 mart, 10 mart) va 8 ta ekish sxemalarida (70×5 sm; 70×10 sm; 70×15 (nazorat) sm; 70×20 sm; 50+20/2×5 sm; 50+20/2×10 sm; 50+20/2×15 sm va 50+20/2×20 sm) o‘simliklarning o‘sishi dinamikasi hisoblandi.

**Tadqiqot usullari.** Dala tajribalari “Sabzavotchilik, polizchilik va

kartoshkachilikda tajribalar o'tkazish metodikasi" (B.J. Azimov, B.B. Azimov, 2002), "Metodika polevogo opita v ovoshevodstve i baxchevodstve" (V.F. Belik, 1992) va "Metodicheskiye ukazaniya po izucheniyu kolleksii luka i chesnoka" (A.A. Kazakova, L.S. Borisenkova, 1986) uslubiy qo'llanmalari asosida olib borildi, tadqiqot natijalarining statistik tahlili "Excel 2010" va "Statistica 7.0 for Windows" kompyuter dasturida, 0,95% ishonchlilik oralig'i bilan "Metodika polevogo opita" (B.A. Dospexov, 1985) dispersion usuli bo'yicha hisoblandi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor Farg'ona vodiysi tuproq-iqlim sharoitida porey piyozning 13 ta nav namunalarining qimmatli xo'jalik belgilari aniqlangan;

45-kunlik ko'chatidan yetishtirib erta mahsulot olishda Kolambus navida 81 kun hamda eng yirik o'lchamli ( $\geq 40$  mm) soxta poya Osenniy gigant navida 56,6 %, Vesta navida 56,5 % va Elefant MS navida 57,3 % bo'lishi aniqlangan;

porey piyozining Vesta va Elefant MS navlarini 10 fevral ekish muddatida yirik o'lchamli ( $40,7 \times 5,4$  va  $37,2 \times 4,8$  sm) va og'ir vaznli (535,1-516,1 g) soxta poya olish mumkinligi isbotlangan;

45-kunlik porey piyozi ko'chatlarini  $50+20/2 \times 15$  sm ekish sxemasining  $0,0525 \text{ m}^2$  oziqlanish maydonida Vesta va Elefant MS navlarida eng og'ir soxta poya vazni (270,2-276,2 g) va eng yuqori soxta poya hosilni (51,5-52,6 t/ga) shakllanganligi ilmiy asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Farg'ona vodiysida porey piyozidan maydon birligidan yuqori tovarbop (soxta poya) hosildorlik ega Osenniy gigant (57,8 t/ga), Vesta (51,4 t/ga) va Elefant MS (51,3 t/ga%) navlari tanlangan;

porey piyozining Vesta va Elefant MS navlarini o'suv davrida maydon birligidan yuqori tovarbop hosilni (57,6-56,7 t/ga) 10 fevral ekish muddatida olish imkoniyati mavjudligi isbotlangan;

porey piyoz  $50+20/2 \times 15$  sm ekish sxemasida eng yuqori umumiy (103,0-102,4 t/ga) va tovarbop (51,5-52,6 t/ga) hosildorlik porey piyozining 45-kunlik ko'chatlarida Vesta va Elefant MS navlarida namoyon qilganligi aniqlangan.

porey piyoz nav namunalarini yetishtirishda maydon birligidan Osenniy gigant (235,1 mln. so'm), Vesta (204,1 mln. so'm) va Elefant MS (203,1 mln. so'm) navlari hamda Vesta va Elefant MS navlarini 10 fevral muddatida (234,2 va 229,7 mln. so'm) va  $50+20/2 \times 5$  sm ekish sxemasida (294,6 va 286,2 mln. so'm) eng yuqori sof foyda olingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dala tajribalari mutaxassislar tomonidan aprobatsiyadan o'tkazilib baholanganligi, nazariy va amaliy natijalarning bir-biriga mos kelganligi, ishlab chiqarishga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining xalqaro va mahalliy tajribalar bilan taqqoslanganligi, kuzatilgan qonuniyatlar va olingan hulosalarning mosligi, tajriba natijalari halqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilinganligi, hamda mahalliy va xorijiy nashrlarda chop etilganligi bilan isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Farg'ona vodiysi tuproq-iqlim sharoitida porey piyozi navlari o'simliklarini fenologik fazalarini o'tishi va hosildorligi o'rganilganligi bilan ilmiy

asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati poye piyoz navlari tanlanganligi, hosil yetishtirishda maqbul ekish muddati va sxemalari aniqlanganligi hamda ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilganligi va fermer xo'jaliklarda joriy etilganligini bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Farg'ona vodiysi sharoitida poye piyozining biologiyasi va yetishtirish agrotexnikasini ayrim elementlarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar natijasida:

“Farg'ona vodiysi sharoitiga mos poye piyoz nav namunalari tanlash va yetishtirish agrotexnikasi” bo'yicha tavsiyanoma tasdiqlangan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2024-yil 8-oktabrdagi 05/06-04-477-son ma'lumot-nomasi). Natijada, ushbu tavsiyalar bugungi kunda agroklastar, fermer va dehqon xo'jaliklari hamda tomorqa egalari ekin maydonlarida poye piyozini yetishtirish va undan yuqori hosil olishda qo'llanma sifatida xizmat qilmoqda;

tanlab olingan poye piyozining serhosil “Osenniy gigant”, “Vesta” va “Elefant MS” navlarini Andijon viloyati Jalaquduq tumanidagi “Sholikor fayz yerlari” fermer xo'jaligida 1,3 gektar, Namangan viloyati Kosonsoy tumanidagi “Jamoliddin Abdulvohid bog'lari” fermer xo'jaligida 0,4 gektar, “Sharq marvaridlari” fermer xo'jaligida 0,5 gektar maydonda joriy etilgan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2024 yil 8-oktabrdagi 05/06-04-477-son ma'lumot-nomasi). Natijada, eng yuqori soxta poya hosildorlik poye piyozining “Vesta” (51,4 t/ga), “Elefant MS” (51,1 t/ga) va “Osenniy gigant” (56,5 t/ga) navlaridan, shuningdek, “Vesta” va “Elefant MS” navlarining 45-kunlik ko'chatlarini 10-fevral ekish muddatida (mos ravishda) 55,1 va 54,9 t/ga hamda 50+20/2×15 sm ekish sxemasida (mos ravishda) 50,6 va 51,5 t/ga olingan.

Farg'ona viloyati Rishton tumanidagi “Xasanboy ma'rifati” fermer xo'jaligida 0,6 gektar, “Shokir pirm yerlari” fermer xo'jaligida 0,5 gektar maydonda joriy etilgan (Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2024 yil 8-oktabrdagi 05/06-04-477-son ma'lumot-nomasi). Natijada, eng yuqori soxta poya hosildorlik poye piyozining “Vesta” (50,6 t/ga), “Elefant MS” (55,9 t/ga) va “Osenniy gigant” (47,5 t/ga) navlarida olingan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ishlar nashr etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, jumladan xorijiy jurnallarda 1 ta, xalqaro konferensiyalarda 3 ta va respublika ilmiy-amaliy anjumanlari materiallarida 2 ta tezislarda hamda 1 ta tavsiyanoma chop etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish qismida** dissertatsiya ishining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari yoritilgan, tadqiqotning obyekti va predmeti keltirilgan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati, ularni joriy etish, aprobatsiya va ish natijalarining chop etilganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar, dissertatsiyaning hajmi va qisqacha tarkibi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Porey piyozining (*Allium porrum* L.) ahamiyati, biologik xususiyatlari va yetishtirish texnologiyasini o‘rganilganligi (adabiyotlar sharhi)”** deb nomlangan birinchi bobida tadqiqot mavzusi bo‘yicha xorij va respublikamiz olimlarining ushbu mavzuda olib borgan ilmiy tadqiqotlari va adabiy manbalari sharhlangan. Jumladan, porey piyozining qimmatli piyoz ekini sifatida, kelib chiqishi, turlari va tarqalishi, morfo-biologik xususiyatlari hamda yetishtirish texnologiyasi bo‘yicha adabiyotlar ma‘lumotlari tavsiflangan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot o‘tkazish joyi sharoiti va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot mavzusi yuzasidan dala tajribalari olib borilgan joyning tuproq-iqlim sharoiti, tadqiqot maqsadi, obyekti hamda tajribalarni o‘tkazish uslublari tavsiflangan. Xususan, ushbu bobning «Tadqiqotni o‘tkazish dasturi» bo‘limida ishlab chiqilgan mavzuning maqsadi, vazifalari, tadqiqot obyektlari, dala tajribalari va laboratoriya tahlillarini olib borish uslublari, dala tajribalarida Farg‘ona vodiysi sharoitiga mos porey piyozi nav va duragaylarini tanlash hamda turli ekish muddat va sxemalarida yetishtirishda qo‘llanilgan fenologik kuzatuvlar va biometrik hisoblar, shuningdek tajriba ma‘lumotlariga matematik ishlov berish tartiblari bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Farg‘ona vodiysi tuproq-iqlim sharoitiga porey piyozini ko‘chatidan yetishtirishda maqbul navlarni tanlash”** deb nomlangan uchinchi bobining **“Porey piyozi nav namunalari o‘sib-rivojlanishi”** deb nomlangan paragrafida ochiq dala sharoitida porey piyozi nav namunalari 45 kunlik ko‘chat ekilgandan (20/II) to soxta poya shakllanishigacha Karantanskiy (st) naviga (6/V) nisbatan Osenniy gigant navi (22/IV) – 14 kun, Letniy briz navi (26/IV) – 10 kun, Premyer navi (26/IV) – 10 kun, Kamus navi (28/IV) – 8 kun, Jiraf navi (29/IV) – 7 kun Lincoln F1 duragayi (29/IV) – 7 kun, Kazimir navi (3/V) – 3 kun hamda Elefant MS navi (3/V) – 3 kun ilgari shakllan-ganligi aniqlandi. Shuningdek, soxta poya shakllanishida foydali havo yig‘indisi Osenniy gigant navida – 1167,2°C, Letniy briz navida – 1275,1°C, Premyer navida – 1275,1°C, Kamus navida – 1334,7°C, Jiraf navida – 1366,5°C, Lincoln F1 duragayida – 1366,5°C, Kazimir va Elefant MS navlarida – 1489,7°C ni tashkil qildi. Askincha, 45 kunlik ko‘chat ekilgandan (20/II) to soxta poya shakllanishigacha porey piyozning Zimniy gigant navida – 82 kun bo‘lib, foydali havo yig‘indisi – 1778,1°C ni namoyon qildi.

Soxta poya shakllanishidan to texnik pishishigacha porey piyozning Karantanskiy (st) navida (09/VII) – 65 kunni talab qilib, bunda foydali havo

yig'indisi – 1503,2°C ni tashkil qildi. Karantanskiy (st) naviga (09/VII yoki 65 kun) nisbatan 31-23 kun ilgari Kolambus (12/V yoki 34 kun) va Vesta (23/V yoki 42 kun) navlarida namoyon bo'lib, foydali havo yig'indisi (mos ravishda) – 928,7 va 1177,9°C ni tashkil qildi.

Bundan tashqari, porey piyozning Lincoln F1 duragayida – 53 kun (21/VI), Osenniy gigant navida – 54 kun (15/VI), Premyer navida – 54 kun (19/VI), Kamus navida – 56 kun (21/VI), Kazimir navida – 58 kun (30/VI), Jiraf navida – 62 kun (30/VI) va Elefant MS navida – 63 kun (05/VII) talab qilinganligi aniqlandi. Shuningdek, soxta poya shakllanishidan to texnik pishishigacha Osenniy gigant navida – 1684,3°C, Premyer navida – 1714,6°C, Kamus navida – 1720,9°C, Kazimir navida – 1889,5°C, Jiraf navida – 2012,7°C, Elefant MS navida – 2075,4°C va Lincoln F1 duragayida – 2383,9°C foydali havo yig'indisida bo'lganligi aniqlandi. aksincha, porey piyozning Zimniy gigant navida – 3021,2°C va Letniy briz navida – 2290,0°C foydali havo yig'indisida soxta poya shakllanishidan to texnik pishishigacha (mos ravishda): 71 kun (23/VII) va 70 kunni (5/VII) namoyon qildi.

Ochiq dalada ko'chat ekilgandan hosil yig'ishgacha butun o'suv davrida Karantanskiy (st) navida 3075,1°C foydali havo yig'indisini talab qilgan bo'lsa, unga nisbatan Kolambus navi (1748,6°C) – 1326,5°C va Vesta navi (2073,5°C) – 1001,6°C eng kam foydali havo yig'indisida shakllanganligi aniqlandi. Shuningdek, Karantanskiy (st) naviga (3075,1°C) nisbatan Pobeditel navi (2496,3°C) – 578,8°C, Osenniy gigant navi (2851,5°C) – 223,6°C, Premyer navi (2989,7°C) – 85,4°C va Kamus navi (3055,6°C) – 19,5°C foydali havo yig'indisini talab qilganligi ma'lum bo'ldi.

Aksincha, ochiq dalaga ko'chat ekilgandan hosil yig'ishgacha butun o'suv davrida eng yuqori foydali havo yig'indisini Karantanskiy (st) naviga (3075,1°C) nisbatan Jiraf navi (3379,2°C) – 304,1°C, Kazimir navi (3379,2°C) – 304,1°C, Letniy briz navi (3565,1°C) – 490,0°C, Elefant MS navi (3565,1°C) – 490,0°C, Lincoln F1 duragayi (3750,4°C) – 675,3°C hamda Zimniy gigant navi (4799,3°C) – 1724,2°C ni namoyon qildi.

Dissertatsiyaning **“Porey piyozi nav namunalariining biometrik ko'rsatkichlari”** deb nomlangan paragrafida o'rganilgan porey piyoz nav namunalariidagi 1 tupdagi barglar soni aniqlanganda Vesta, Osenniy gigant va Elefant MS navlarida – 13 dona, Zimniy gigant, Kazimir, Kamus, Karantanskiy, Kolambus va Premyer navlarida – 12 dona, shuningdek, Jiraf, Pobeditel navlari va Lincoln F1 duragayida – 11 dona hamda Letniy briz navida – 10 dona barg shakllanganligi aniqlandi (1-javdal).

Porey piyozi nav namunalariida bargi o'lchamlari tahlil qilinganda, Premyer (82,5×3,9 sm), Kazimir (75,9×5,2 sm), Pobeditel (73,4×4,7 sm) navlari, Lincoln F1 duragayida (79,5×3,5 sm) eng yirik barg o'lchami, aksincha, Jiraf (58,7×3,7 sm) va Zimniy gigant (57,6×4,2 sm) navlarida kichik barg o'lchami aniqlandi. Shuningdek, katta barg sathi Kazimir (394,7 sm<sup>2</sup>), Osenniy gigant (371,6 sm<sup>2</sup>), Vesta (360,2 sm<sup>2</sup>), Elefant MS (351,5 sm<sup>2</sup>) va Pobeditel (345,0 sm<sup>2</sup>) navlari, aksincha, kichik bir dona barg sathini Premyer (321,8 sm<sup>2</sup>), Kamus (277,3 sm<sup>2</sup>), Kolambus (249,5 sm<sup>2</sup>), Zimniy gigant (241,9 sm<sup>2</sup>), Letniy briz (218,9 sm<sup>2</sup>), Jiraf (217,2 sm<sup>2</sup>) navlari hamda Lincoln F1 (278,3 sm<sup>2</sup>) duragaylari namoyon qildi.

Porey piyozi nav namunalaridan katta barg sathi Osenniy gigant (4831,3 sm<sup>2</sup>), Kazimir (4736,2 sm<sup>2</sup>), Vesta (4682,3 sm<sup>2</sup>) va Elefant MS (4569,8 sm<sup>2</sup>) navlarida, aksincha, bir tupdagi kichik barg sathi Lincoln F1 duragayida (3060,8 sm<sup>2</sup>) hamda Kolambus (2993,8 sm<sup>2</sup>), Zimniy gigant (2903,0 sm<sup>2</sup>), Jiraf (2389,1 sm<sup>2</sup>) va Letniy briz (2188,6 sm<sup>2</sup>) navlarida aniqlandi.


1-jadval

Porey piyoz nav namunalarining barg o'lchamlari (2021-2023 yy.)

Nav namunalar nomi	Bir tupdagi barglar soni, dona	Barg o'lchami (uzunligi×eni), sm	Barg sathi		
			bir dona, sm <sup>2</sup>	bir tupda, sm <sup>2</sup>	bir gektarda, ming m <sup>2</sup>
Karantanskiy (st)	12	70,7×4,8	339,4±8,1	4072,3±96,9	77,6±1,1
Vesta	13	66,7×5,4	360,2±6,6	4682,3±85,5	89,2±1,3
Jiraf	11	58,7×3,7	217,2±4,0	2389,1±43,6	45,5±0,7
Zimniy gigant	12	57,6×4,2	241,9±4,9	2903,0±59,3	55,3±0,8
Kazimir	12	75,9×5,2	394,7±8,1	4736,2±96,7	90,2±1,3
Kamus	12	71,1×3,9	277,3±6,6	3327,5±79,2	63,4±0,9
Kolambus	12	69,3×3,6	249,5±4,6	2993,8±54,7	57,0±0,8
Letniy briz	10	70,6×3,1	218,9±4,0	2188,6±40,0	41,7±0,6
Osenniy gigant	13	65,2×5,7	371,6±7,6	4831,3±98,6	92,0±1,4
Pobeditel	11	73,4×4,7	345,0±7,0	3794,8±77,5	72,3±1,1
Premyer	12	82,5×3,9	321,8±7,7	3861,0±91,9	73,5±1,5
Elefant MS	13	67,6×5,2	351,5±8,4	4569,8±108,8	87,0±1,8
Lincoln F1	11	79,5×3,5	278,3±5,7	3060,8±62,5	58,3±1,2
EKMF <sub>05</sub>	0,5	3,0-0,2	13,5	162,5	2,4
Sx <sub>%</sub>	4,2	4,4-4,3	4,4	4,5	3,4

Maydon birligida ko'p barg sathini porey piyozining Osenniy gigant (92,0 ming m<sup>2</sup>), Kazimir (90,2 ming m<sup>2</sup>), Vesta (89,2 ming m<sup>2</sup>) va Elefant MS (87,0 ming m<sup>2</sup>) navlarida, biroq, eng kichik barg sathi Zimniy gigant (55,3 ming m<sup>2</sup>), Jiraf (45,5 ming m<sup>2</sup>) va Letniy briz (41,7 ming m<sup>2</sup>) navlarida shakllanganligi ma'lum bo'ldi.

Porey piyoz nav namunalarida eng baland o'simliklar tahlil qilinganda, Vesta (101,8 sm), Kazimir (99,1 sm), Kamus (99,1 sm), Premyer (99,1 sm), Elefant MS (96,2 sm) va Letniy briz (95,9 sm) navlarida hamda Lincoln F1 (98,7 sm) duragayida, shuningdek, kalta o'simlik balandligi Jiraf (84,4 sm) va Zimniy gigant (82,4 sm) navlarida aniqlandi. Shuningdek, eng uzun soxta poyani Vesta (35,1 sm), Osenniy gigant (32,1 sm) va Elefant MS (28,6 sm) navlarida, aksincha, kalta soxta poyani Pobeditel (19,6 sm), Kolambus (19,5 sm) va Premyer (16,6 sm) navlari hamda Lincoln F1 (19,2 sm) duragayida shakllanganligi ma'lum bo'ldi (1-rasm).



1-rasm. Porey piyoz nav namunalarini o'simliklarining balandligi, o'lchami va vazni (2021-2023 yy.)

Eng og‘ir o‘simlik vazni porey piyozining Osenniy gigant (507,0 g), Premyer (465,3 g), Elefant MS (459,7 g), Vesta (447,4 g), Kolambus (438,2 g), Zimniy gigant (348,9 g), Jiraf (345,6 g) navlarida hamda Lincoln F1 (411,2 g) duragayi, yengil o‘simlik vazni Kazimir (312,2 g), Letniy briz (305,4 g), Kamus (305,0 g) va Pobeditel (292,9 g) navlari namoyon qildi.

Porey piyozi nav namunalarida eng og‘ir barg vazni Premyer (211,3 g), Osenniy gigant (203,6 g), Kolambus (192,3 g) va Elefant MS (190,1 g) navlari namoyon qildi. Aksincha, Kazimir (135,7 g), Pobeditel (129,5 g) va Letniy briz (129,4 g) navlarida shakllanganligi aniqlandi.

Eng og‘ir soxta poyani Osenniy gigant (303,4 g), Vesta (270,2 g), Elefant MS (269,6 g), Premyer (253,9 g), Kolambus (245,9 g), Zimniy gigant (205,0 g), Jiraf (203,6 g) navlari va Lincoln F1 (227,5 g) duragayida aniqlangan bo‘lsa, Pobeditel (163,4 g) va Kamus (157,6 g) navlarida soxta poya vazni kichik bo‘lganligi ma‘lum bo‘ldi.

Dissertatsiyaning **“Porey piyozi nav namunalarining hosildorligi”** deb nomlangan paragrafida Farg‘ona vodiysi tuproq-iqlim sharoitida yetishtirishga mos porey piyozi nav namunalarini tanlash bo‘yicha tadqiqot natijalariga ko‘ra, eng yuqori hosildorlik Osenniy gigant (96,6 t/ga), Premyer (88,6 t/ga), Elefant MS (87,6 t/ga), Vesta (85,2 t/ga) va Kolambus (83,5 t/ga) navlarida, eng kam umumiy hosildorlikni Kazimir (59,6 t/ga), Letniy briz (58,2 t/ga), Kamus (58,1 t/ga) va Pobeditel (55,8 t/ga) navlarida shakllanganligi aniqlandi.

Maydon birligidan eng yuqori tovarbop (soxta poya) hosilni Osenniy gigant (57,8 t/ga), Vesta (51,4 t/ga) va Elefant MS (51,3 t/ga) navlarida hamda eng yirik ( $\geq 40$  mm) soxta poya hosili Elefant MS (57,3 %) Osenniy gigant (56,6 %), Vesta (56,5 %) navlarida, aksincha, Kazimir (36,2 t/ga), Letniy briz (35,0 t/ga), Pobeditel (29,4 t/ga) va Kamus (26,8 t/ga) navlarida kam soxta poya hosilni namoyon qildi (2-jadval).

**2-jadval**

**Porey piyoz nav namunalari soxta poya hosildorligi**

Nav namunalar nomi	Soxta poya hosildorligi, t/ga				
	2021-yil	2022-yil	2023-yil	o‘rtacha	St naviga nisbatan, %
Karantanskiy (st)	32,7±0,8	31,5±0,6	36,7±0,5	33,6±0,5	100,0
Vesta	52,6±1,0	50,6±1,0	51,1±0,8	51,4±0,9	153,0
Jiraf	37,5±0,7	39,7±0,8	39,2±0,6	38,8±0,7	115,5
Zimniy gigant	39,7±0,8	37,3±0,8	40,2±0,6	39,1±0,5	116,4
Kazimir	30,3±0,6	34,4±0,6	36,2±0,5	33,7±0,5	100,3
Kamus	35,3±0,8	28,0±0,6	26,8±0,4	30,0±0,4	89,3
Kolambus	48,2±0,9	47,3±1,0	45,0±0,7	46,8±0,6	139,3
Letniy briz	33,4±0,6	32,1±0,6	35,0±0,5	33,5±0,6	99,7
Osenniy gigant	57,9±1,2	55,9±1,1	59,5±1,2	57,8±1,2	172,0
Pobeditel	32,5±0,7	31,5±0,6	29,4±0,6	31,1±0,6	92,6
Premyer	44,3±1,1	51,2±0,8	49,6±1,0	48,4±0,9	144,0
Elefant MS	54,2±1,3	47,1±0,7	52,7±1,3	51,3±0,8	152,7
Lincoln F1	43,0±0,9	44,3±0,7	42,7±0,9	43,3±0,6	128,9
EKMF <sub>05</sub>	1,8	1,6	1,7	1,3	
Sx%	4,3	3,9	4,0	3,1	

Porey piyoz nav namunalari soxta poyasida yuqori quruq modda Zimniy gigant (21,6 %), Elefant MS (21,4 %), Kazimir (20,1 %) navlarida va Lincoln F1 (20,7 %) duragayida, yuqori qand miqdori Osenniy gigant (7,4 %), Kolambus (6,7 %), Premyer (5,8 %), Elefant MS (5,6 %) navlarda va Lincoln F1 (5,5 %) duragayida, Osenniy gigant (21,5 mg/100 g), Jiraf navlarida (19,1 mg/100 g) yuqori vitamin S to'planganligi aniqlandi.

Porey piyozining Karantanskiy (st) navida – 440 mg/kg meyorida bo'lib, unga nisbatan Osenniy gigant navida – 210,0 mg/kg, Vesta navida – 195,0 mg/kg, Elefant MS navida – 182,0 mg/kg va Kolambus navida – 121,0 mg/kg, Kazimir navida – 99,0 mg/kg, Zimniy gigant navida – 66,0 mg/kg, Pobeditel navida – 48,0 mg/kg, Letniy briz navida – 46,0 mg/kg, Lincoln F1 duragayida – 46,0 mg/kg va Premyer navida – 32,0 mg/kg kam nitrat to'planganligi aniqlandi. Aksincha, Karantanskiy (st) naviga nisbatan Jiraf navida (458 mg/kg) – 18,0 mg/kg yuqori nitrat to'planishi ma'lum bo'ldi.


Dissertatsiyaning **“Porey piyozi nav namunalarning iqtisodiy samaradorligi”** deb nomlangan paragrafida Farg'ona vodiysi tuproq-iqlim sharoitiga mos porey piyoz nav namunalari yetishtirishda maydon birligidan Osenniy gigant (235,1 mln. so'm), Vesta (204,1 mln. so'm) va Elefant MS (203,1 mln. so'm) navlaridan eng yuqori sof davromad, aksincha, Letniy briz (115,6 mln. so'm), Pobeditel (103,8 mln. so'm) va Kamus (98,3 mln. so'm) navlarida kam sof daromad olinganligi aniqlandi. Shuningdek, porey piyozning Osenniy gigant (436,5 %), Vesta (382,5 %) va Elefant MS (380,8 %) navlarida eng yuqori rentabellik, eng kam rentabellik esa Pobeditel (200,5 %) va Kamus (190,4 %) navlarida bo'lganligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Porey piyozini yetishtirish texnologiyasining asosiy elementlarini takomillashtirish»** deb nomlangan to'rtinchi bobidagi **“Porey piyozida yuqori hosilni ta'minlashda maqbul ekish muddatlarini aniqlash”** paragrafida porey piyozining 45 kunlik ko'chat ekilgandan hosil yig'ishgacha butun o'suv davri ertapishar Vesta navida eng kam foydali havo yig'indisi 10-fevral (1761,5°C) muddatida, biroq, 20-fevral (2073,5°C), 1 mart (2257,0°C) va 10-mart (2584,9°C) muddatida yuqori foydali havo yig'indisi shakllandi. Shuningdek, ochiq dalada ko'chat ekilgandan hosil yig'ishgacha butun o'suv davrida o'rtapishar Elefant MS navida eng kam foydali havo yig'indisi 10-fevral (2724,4°C) muddatida, biroq, 20-fevral (3565,1°C), 1-mart (3926,2°C) va 10-mart (4351,4°C) muddatida yuqori foydali havo yig'indisi talab qildi.

Porey piyozning Vesta va Elefant MS navlarida eng baland o'simliklar 10-fevral muddatida (114,8 va 110,1 sm) shakllanganligi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, porey piyozning Vesta va Elefant MS navlarida barg o'lchamlari tahlil qilinganda, Vesta va Elefant MS navlarida 10-fevral muddatida eng yirik barg o'lchami (uzunlik×eni) (74,1×5,3 va 73,0×5,1 sm), yirik barg sathi (386,2 va 372,5 sm<sup>2</sup>), bir tupdagi eng serbarg sathi (5501,3 va 4452,1 sm<sup>2</sup>), shuningdek, maydon birligidagi eng katta barg sathi 10-fevral muddatda (104,8 va 84,8 ming m<sup>2</sup>) shakllanganligi aniqlandi.

Turli ekish muddati va sxemalarida porey piyozining Vesta va Elefant MS navlarida 10-fevral muddatida eng katta soxta poya o'lchamini (uzunligi×diametri) (40,7×5,4 va 37,2×4,8 sm) hamda eng og'ir o'simlik vazni (535,1 va 516,1 g), eng og'ir barg vazni (232,5 va 218,3 g) hamda eng og'ir soxta poya vazni (302,6 va

297,7 g) namoyon qildi (2-rasm).



2-rasm. Turli ekish muddatlarida porey piyoz navlari o'simligi, bargi va soxta poya vazni (2021-2023 yy.)

Maydon birligidan porey piyozining Vesta va Elefant MS navlarida eng yuqori umumiy hosildorlik 10-fevral muddatida (101,9 va 98,3 t/ga) aniqlandi. Aksincha, 1-mart va 10-mart ekish muddatlari nazorat 20-fevralga nisbatan porey piyozining Vesta navi – 9,3 va 16,9 t/ga hamda Elefant MS navi – 11,4 va 23,1 t/ga kam umumiy hosilni shakllanganligi ma'lum bo'ldi.

Yuqori soxta poya hosildorlik porey piyozining Vesta va Elefant MS navlarini 10-fevral muddatida shakllandi. Aksincha, Vesta va Elefant MS navlarda eng kam soxta poya hosildorlikni 1- va 10-mart ekish muddatlarida bo'lib (48,8-43,2 va 45,5-39,1 t/ga), nazorat 20-fevralga nisbatan maydon birligidan (mos ravishda) 4,8-10,4 va 5,8-12,2 tonna kam shakllanganligi aniqlandi (3-jadval).

3-jadval

Turli ekish muddatlarida porey piyoz navlarining soxta poya hosildorligi

Ekish muddatlari	Soxta poya hosildorligi, t/ga				
	2021-yil	2022-yil	2023-yil	o'rtacha	nazoratga nisbatan, %
"Vesta" navi					
10-fevral	57,9±0,85	55,9±0,82	59,1±0,87	57,6±0,68	107,5
20-fevral (nazorat)	54,6±1,0	52,7±0,78	53,5±0,79	53,6±0,69	100,0
1-mart	48,7±0,72	51,1±0,75	46,6±0,69	48,8±0,55	91,0
10-mart	42,6±0,55	44,3±0,65	42,7±0,63	43,2±0,43	80,6
HCP <sub>05</sub>	1,7	1,4	1,5	0,7	
Sx%	3,3	2,7	2,9	1,3	
"Elefant MS" navi					
10-fevral	55,9±0,82	56,9±0,84	57,4±0,84	56,7±0,67	110,5
20-fevral (nazorat)	54,2±0,80	47,1±0,69	52,7±0,78	51,3±0,60	100,0
1-mart	44,3±0,65	47,3±0,70	45,0±0,66	45,5±0,50	88,8
10-mart	39,7±0,58	37,3±0,55	40,2±0,59	39,1±0,43	76,1
EKMF <sub>05</sub>	1,6	1,3	1,4	0,6	
Sx%	3,3	2,8	2,9	1,3	

Tovarbop hosilni taqsimlanishi tahlil qilinganda 10-fevral ekish muddatida Vesta navida soxta poya diametri bo'yicha 31-40 mm – 43,6 % va ≥40 mm – 56,4% bo'lib, Elefant MS navida (mos ravishda) 52,8 va 49,2 % ni tashkil qildi. Shuningdek, nazorat 20-fevral ekish muddatida soxta poya diametri bo'yicha Vesta


navida 31-40 mm – 51,1 % va  $\geq 40$  mm – 48,9 % hamda Elefant MS navida 31-40 mm – 56,9 % va  $\geq 40$  mm – 43,1 % namoyon qildi.

O‘rganilgan ekish muddatlarida soxta poya diametri bo‘yicha Vesta navida 1-martda: 21-30 mm – 41,6 % va 31-40 mm – 58,4 %, 10-martda: 11-20 mm – 43,5 %, 21-30 mm – 50,9 % va 31-40 mm – 5,6 % tovarbop soxta poya hosilini shakllanganligi aniqlandi. Ushbu qonuniyat Elefant MS navida 1-martda: 21-30 mm – 47,5% va 31-40 mm – 52,5 %, shuningdek, 10-martda: 11-20 mm – 41,2 %, 21-30 mm – 49,1 % va 31-40 mm – 9,7 % namoyon qildi.

